

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RAXIMOVA GULBAXOR KARSHIBAYEVNA

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING
MUSTAQIL TA‘LIM VA O‘QUV TOPSHIRIQLARINI ISHLAB
CHIQISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Bolalar adabiyoti fani misolida)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (O‘zbek adabiyoti)

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
по педагогическим наукам**

Content of dissertation doctor (DSc) of pedagogical sciences

Raximova Gulbaxor Karshibayevna

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirish (Bolalar adabiyoti fani misolida) 3

Рахимова Гулбахор Каршибаевна

Совершенствование методики разработки заданий самостоятельного обучения и учебных работ будущих учителей начальных классов (на примере дисциплины Детской литературы)..... 29

Rakhimova Gulbakhor Karshibaevna

Improving the methodology for developing independent educational and methodological assignments for future primary school teachers (Using children’s literature as an example)..... 59

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 63

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RAXIMOVA GULBAXOR KARSHIBAYEVNA

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING
MUSTAQIL TA‘LIM VA O‘QUV TOPSHIRIQLARINI ISHLAB
CHIQISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Bolalar adabiyoti fani misolida)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (O‘zbek adabiyoti)

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Ped967 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Samarqand davlat pedagogika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (jdpu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Axmedova Maloxat Ergashevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Seytkasimov Dauletnazar Beknazarovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Xoshimxonov Mo'minxon
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Kambarova Saodat Irkinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020 Fil.113.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil "18" 111 soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sharof Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (+99872) 226-13-57, 226-21-73, faks: (+99872) 226-46-56; e-mail: jspi@umail.uz. Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o'quv bino, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya va avtoreferat bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 19-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sharof Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (+99872) 226-13-57, 226-21-73, faks: (+99872) 226-46-56).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "3" 111 kuni tarqatildi.
(2026-yil "3" 111 dagi 1-raqamli reyestr bayonnomasi).



U.A. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol. fanlari doktori, professor

N.N. Xadjimusayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U. Qosimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi filol. fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida "Bolalar adabiyoti" fanini o'qitish metodikasi pedagogika, adabiyotshunoslik hamda bolalar psixologiyasi sohalaridagi ilmiy yutuqlarning uzviy uyg'unligi asosida rivojlanib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi va raqamli axborot muhitining keng kirib kelishi sharoitida bolalarda badiiy matnni ongli idrok etish, uni tanqidiy tahlil qilish hamda qadriyatlarga tayangan holda baholash ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim tizimlari oldida turgan ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Chunki badiiy adabiyot bolaning til orqali shakllanadigan dunyoqarashini boyitadi, uning tafakkuri, hissiy-intellektual rivoji va ma'naviy pozitsiyasini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Xalqaro ta'lim tadqiqotlari va baholash dasturlari, jumladan, PISA va PIRLS natijalari o'quvchilarning matnni tushunish, talqin etish va asoslangan xulosa chiqarish kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatib, bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Dunyo ta'lim makonida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvor tamoyil sifatida qaror topishi "Bolalar adabiyoti" fanini o'qitish metodikasini tizimli ravishda yangilab borishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda, xususan, Finlandiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya ta'lim tizimlarida bolalar adabiyotini o'qitish jarayoni o'quvchilarning badiiy matn bilan mustaqil ishlash, uni talqin qilish, baholash va shaxsiy munosabat bildirish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar asosida tashkil etiladi. Mazkur yondashuvlar xalqaro baholash tadqiqotlarida, jumladan, PISA va PIRLS doirasida o'quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va amaliy xulosa chiqarish qobiliyatlari asosiy ko'rsatkich sifatida e'tirof etilayotgani bilan hamohang bo'lib, fan mazmunining ta'limiy salohiyati aynan mustaqil ta'lim topshiriqlari va o'quv ishlarining ilmiy asoslangan tizimi orqali ro'yobga chiqishini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda o'zbek tili va adabiyotining nufuzi hamda maqomini yuksaltirish, shuningdek, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy ta'lim talablari asosida takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining "Bolalar adabiyoti" fanini o'qitish faoliyatiga nisbatan mazmunan boy, metodik jihatdan asoslangan va kompetensiyaviy yondashuvga tayangan yangi talablarni ilgari surmoqda. **Shavkat Mirziyoyevning** "Davlat tiliga bo'lgan e'tibor – mustaqillikka bo'lgan e'tibordir" degan g'oyasi bolalar adabiyotini o'qitishda badiiy matn orqali tilga, milliy qadriyatlarga va ma'naviy merosga ongli munosabatni shakllantirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Shu jihatdan "Bolalar adabiyoti" fanini o'qitish jarayonida mustaqil ta'lim topshiriqlari va o'quv ishlarini ilmiy-metodik asosda loyihalash, ularni milliy-ma'naviy qadriyatlar hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'lib, mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-iyuldagi 419-son “Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti to‘g‘risida”, 2020-yil 11-martdagi 139-son “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan amalga oshirish dasturida zamonaviy o‘qitish metodikasini yaratishga doir belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu tadqiqot ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Jahon pedagogik va filologik tadqiqotlarida bolalar adabiyoti ta’limida mustaqil ta’lim hamda o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirish masalasi keng ilmiy doirada o‘rganilmoqda. Mazkur izlanishlarda badiiy asarni tarixiy, madaniy, geografik, lingvistik va texnologik aspektlarda tahlil qilish, matn bilan ishlash jarayonida muallif va kitobxon o‘rtasidagi muloqotga tayangan yondashuvni shakllantirish, talqin va intertekstual tahlil imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek, adabiy ta’limni til o‘qitish jarayoni bilan integratsiyalash yetakchi ilmiy markazlar faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar AQShning Arizona shtati universiteti, Garvard universiteti, Michigan universiteti, Buyuk Britaniya va Shotlandiyaning Kembrij universiteti, Oksford universiteti, Edinburg universiteti, Germaniyaning Bonn universiteti va Myunxendagi Lyudvig Maksimilian universiteti, Fransiyaning Strasburg universiteti, Koreyaning Seul milliy universiteti, Turkiyaning Anqara universiteti, Gazi universiteti, Hajettepe universiteti, Ondokuz Mayıs universiteti, Rossiyaning Moskva davlat pedagogika universiteti, Qozog‘istonning Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti, shuningdek, O‘zbekistonning Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti hamda Samarqand davlat pedagogika instituti kabi oliy ta’lim muassasalarida izchil olib borilmoqda.

Xorijiy tadqiqotlarda bolalar adabiyotini san’atning boshqa turlari bilan integratsiyada o‘qitish, badiiy matnlar asosida ekstensiv o‘qishga o‘tish hamda mustaqil ta’lim topshiriqlari orqali o‘quvchilar o‘quv motivatsiyasini oshirishning samarali mexanizmlari ilmiy asoslab berilgan. Bunda adabiy matnlarda aks etgan

dunyo madaniyati, tarixiy xotira va milliy an'analarni aniqlashga yo'naltirilgan yondashuvlar bolalar adabiyoti ta'limining mazmuniy boyishini ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, turli janrdagi asarlarni o'rganishda kreativ fikrlashni faollashtiruvchi savollar tizimini ishlab chiqish, badiiy qahramonlarning ijtimoiy va madaniy fonini tavsiflash, kitobxonning matn bilan faol muloqotga kirishishini ta'minlashga qaratilgan strategiyalar ilmiy jihatdan asoslangan.

Bir qator izlanishlarda adabiy matnlar orqali turli til va madaniyat vakillariga xos hayot tarzi, tafakkur modeli hamda madaniyatning yashirin qatlamlarini ochib berish imkoniyatlari tahlil qilingan bo'lib, bunday yondashuvlar bolalar adabiyoti ta'limida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Kognitiv yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlarda esa badiiy asar voqealarini ijtimoiy-tarixiy kontekstda talqin qilish, so'z va obrazlarni turli semantik rakurslarda tahlil etish, qiziqarli mutolaani tashkil etish hamda kitobxon va adabiy qahramon o'rtasida xayoliy muloqot muhitini shakllantirish bolalar adabiyoti ta'limi samaradorligini oshirish omili sifatida ko'rsatib berilgan.

Xorijiy ilmiy manbalarda adabiy ta'lim mazmunini turli ijtimoiy vaziyatlarda qo'llash orqali o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, badiiy asarning yuzaki mazmuni bilan cheklanmasdan, uning chuqur g'oyaviy va ma'naviy mohiyatini anglashga yo'naltirish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, adabiy matnlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali talabalarda kreativ, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish yo'llari ham ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Bundan tashqari, jahon ta'lim tizimida bolalar adabiyoti ta'limida interaktiv elektron o'qitish texnologiyalaridan foydalanish masalalari ham tadqiqot obyekti sifatida qaralib, mustaqil ta'lim topshiriqlarini raqamli muhitda tashkil etish, o'quv jarayonini individuallashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ilmiy asoslangan.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalar adabiyoti ta'limida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirish, badiiy matnni ko'p aspektli tahlil qilish hamda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash xalqaro miqyosda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mazkur dissertatsiya mavzusining nazariy asoslanganligi va ilmiy yangiligini to'liq tasdiqlaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek bolalar adabiyoti va uni o'qitish metodikasiga doir ilmiy tadqiqotlarda badiiy asarni mazmunan chuqur anglash, estetik didni shakllantirish va ma'naviy qadriyatlarni singdirish masalalari yetakchi yo'nalish sifatida yoritilgan. Jumladan, bolalar adabiyotining janr xususiyatlari, obrazlar tizimi va tarbiyaviy salohiyati G'afur G'ulom¹, Quadrat Hikmat², Po'lat Mo'min³, Shukur Sa'dulla, Hakim Nazir, Mirkarim Osim, Nosir Fozilov, Safar Barnoyev, Anvar Obidjon kabi adiblar ijodi misolida tahlil qilingan.

¹ G'ulom G'. Tanlangan asarlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2016.

² Hikmat Q. Bolalar uchun she'r va dostonlar. – T.: Yangi asr avlodi, 2016.

³ Mo'min P., Sa'dulla Sh., Nazir H. Bolalar adabiyoti namunalar. – T.: O'zbekiston, 1984, 1987, 1990. Matjonov S. Kitob o'qishni bilasizmi? –T.: O'qituvchi, 1993. – 144 b. Elektron.

Bolalar adabiyotini o'qitish metodikasi masalalari Qambar Ota⁴, K.Turdiyeva⁵, Dilshod Rajab⁶, A.Kuchimov⁷, M.Jumaboyev⁸, A.Avloniy, L.Xalilov, T.Adashboyev, A.Akbar, K.Turdiyeva, Q.Yo'ldoshev, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, U.Dolimov, R.Keldiyorov, Y.Abduvalitov, V.Qodirov, Q.Yusupov, N.Yuldasheva, M.Tursunova⁹ tadqiqotlarida mustaqil ishlarni tashkil etish, badiiy asar tahliliga tizimli yondashuv, muammoli ta'lim va qadriyatlar asosida tarbiyalash bilan bog'liq jihatlar o'rganilgan.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan bolalar adabiyotini san'at asari sifatida idrok etish, badiiy obraz va matn strukturasini tahlil qilish masalalari keng yoritilgan. A.S.Pushkin¹⁰, N.A.Nekrasov, L.N.Tolstoy, K.I.Chukovskiy, S.Y.Marshak¹¹ asarlari bolalar adabiyotining shakllanishida muhim manba sifatida baholangan. Adabiy ta'limning nazariy va metodik jihatlarini G.I.Belenkiy¹², V.A.Domanskiy, Y.N.Kolokolsev¹³, V.G.Maransman, N.D.Moldavskaya ishlarida pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, adabiyot o'qitishda badiiy ijod va estetik idrok M.S.Kagan, A.B.Yesin¹⁴, V.G.Maransman, N.D.Moldavskaya¹⁵ tadqiqotlarida yoritilgan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda badiiy matn bilan ishlash, o'qish savodxonligi va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalari kontekstual va assotsiativ

⁴ Ota Q. Bolalar adabiyotini o'qitish masalalari. – T.: Fan, 2000.

⁵ Turdiyeva K. Bolalar adabiyotini o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2005.

⁶ Rajab D. Adabiy ta'limda mustaqil ishlar tizimi. – T.: TDPU nashriyoti, 2010. Raximova G.R. Bolalar adabiyoti. Darslik. – S.: SamDCHTI, 2025. – 230 b.; Raximova G.R. Boshlang'ich ta'limda didaktik asarlar orqali kitobxonlikni shakllantirish. O'quv qo'llanma. – S.: SamDCHTI, 2024. – 212 b.

⁷ Kuchimov A. Adabiy ta'lim nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiya, 2012.

⁸ Jumaboyev M., Yo'ldoshev Q., Matchonov S. Adabiy ta'lim metodikasi muammolari. – T.: Universitet, 2015.

⁹ Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti (– T.: O'qituvchi, 2013); A.Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq, Latif Xalilov. www.ziyouz.com. kutubxonasi. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. Ikki jildlik. She'riyat. Tuzuvchi va nashrga tayorlovchilar. T.Adashboyev, A.Akbar. – T.: O'qituvchi, 2006. – 279 b.; S.Matchonov Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fan. dok. ...diss. – T.: 1998. – 308 b.; Turdiyeva K. Bolalar adabiyoti. Darslik. –T.: 2010.; Yo'ldoshev Q.B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ...diss. – T.: 1997. – 306 b.; Mirqosimova M.M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan. dok. ...diss. – T.: 1995. – 253 b.; Husanboyeva Q.P. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ...diss. – T.: 2006. – 34-b. – 262 b.; Niyozmetova R.X. Uzlaksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganishning nazariy va metodik asoslari (rus guruhlarini misolida). Ped. fan. dok. ...diss. – T.: 2007. – 242 b.; Dolimov U. Jadid maktablar: ularda ona tili va adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari. Ped. fan. dok. ...diss. avtoref. – T.: 2008. – 44 b.; Keldiyorov R.A. Adabiyot dars mashg'ulotlari samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari (O'qituvchi kasbiy-ma'naviy fazilatlarini asosida). Ped. fan. nomz. ...diss. – T.: 2001. – 137 b.; Abduvalitov Ye.B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qardosh xalqlar adabiyotini qiyosiy o'rganish (ta'lim o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va turkman tillarida olib boriladigan maktablarning V-IX sinflari adabiyot dars mashg'ulotlari misolida). Ped. fan. dok. (DSc) ...diss. – T.: 2020. – 252 b.; Qodirov V. Umumta'lim maktablarida mumtoz adabiyot namunalari o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. (DSc) ...diss. – Namangan, 2019. – 271 b.; Yusupov Q.A. Akademik litseylarda qoraqalpoq adabiyotini o'qitish metodikasi. Ped. fan. dok. (DSc) ...diss. avtoref. – Nukus, 2021. – 66 b.; Yuldasheva N.A. Adabiy ta'limda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy-metodik asoslari (umumiy va o'rta maxsus ta'lim tizimi misolida). Ped. fan. dok. (DSc) ...diss. avtoref. – Chirchiq: 2022. – 65 b.; Tursunova M. Madrasalar ta'limida adabiyot o'qitish usullari. – T.: “Mumtoz so'z”, 2017. – 100 b.

¹⁰ Pushkin A.S. Asarlar to'plami. – M.: Наука, 1990.

¹¹ Chukovskiy K.I., Marshak S.Ya. Bolalar adabiyoti masalalari. – M.: Просвещение, 1980.

¹² Belenkiy G.I. Adabiy asarni tahlil qilish metodikasi. – M.: Pedagogika, 1985.

¹³ Доманский В.А., Колоколцев Е.Н. Адабий таълим назарияси. – М.: Академия, 1990.

¹⁴ Каган М.С., Есин А.Б. Бадий иждод ва эстетик идрок. – М.: Искусство, 1995.

¹⁵ Марансман В.Г., Молдавская Н.Д. Адабий таълимнинг психологик асослари. – М.: Наука, 1992.

yondashuv asosida o'rganilgan. Turkiya olimlari Yilmaz Jevdet¹⁶, Buyuk Britaniya tadqiqotchilari C.J.Brumfit, R.A.Karter, S.McKay, U.Litlvud, A.Maley¹⁷, AQSh olimlari A.Kelly, E.D.Collete; J.Collie, S.Slater¹⁸, Eron tadqiqotchilari M.Khatip A.H.Rahimi¹⁹ ishlarida adabiy matnning ta'limiy imkoniyatlari tahlil qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Samarqand davlat pedagogika institutining 2021–2024-yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kasbiy mahoratini oshirish muammolari” yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida “Bolalar adabiyoti” fani bo'yicha o'quv va mustaqil ta'lim topshiriqlarining nazariy va metodik asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bolalar adabiyoti ta'limida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasining konseptual, nazariy va metodologik asoslarini aniqlash;

“Bolalar adabiyoti” fani bo'yicha o'quv va mustaqil ta'lim topshiriqlarining integrativ modelini takomillashtirish;

o'quv va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish konsepsiyasini asoslash hamda ularning didaktik-metodik funksiyalarini aniqlashtirish;

adabiy ta'limni til o'qitish jarayoni bilan uzviy integratsiyalash asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy, kommunikativ va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash;

bolalar adabiyoti fanini o'qitishda ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov asosida baholash hamda olingan natijalar yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida “Bolalar adabiyoti” fani bo'yicha o'quv va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish metodikasini takomillashtirish jarayonida O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogika universiteti, Toshkent amaliy fanlar universiteti hamda Andijon davlat pedagogika instituti talabalari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini “Bolalar adabiyoti” fani doirasida o'quv topshiriqlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishning pedagogik mazmuni, didaktik-metodik imkoniyatlari, ta'limiy va tarbiyaviy shakl va vositalari tashkil qiladi.

¹⁶ Yilmaz Cevdet. *Introducing Literature to an EFL Classroom: Teacher's Instructional Methods and Student's Attitudes toward the Study of Literature.*

¹⁷ Brumfit C.J., Carter R.A. *Literature and Language Teaching.* – London: Oxford University Press, 2000. McKay S., Littlewood W., Maley A. *Language, Literature and Education.* – London: Longman, 2006.

¹⁸ Kelly A., Collete E.D. *Children's Literature: Discovery For A Life Time.* – Arizona.: Gorsuch Scarisbrick Publisher. 1996; Collie J., Slater S. *Literature in the Language Classroom.* – Cambridge: CUP, 2004.

¹⁹ Khatip, M. & Rahimi, A.H. *Literature and Language Teaching.* *Journal of Academic and Applied Studies.* Vol. 2 (6). Cambridge: 2012. – P. 32–38.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda anketa va so‘rovnoma, pedagogik suhbat, pragmatik-didaktik kuzatuv, pedagogik loyihalash, qiyosiy va tizimli tahlil, ta‘lim jarayonini monitoring qilish, shuningdek, tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bolalar adabiyoti ta‘limida mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasining konseptual, nazariy va metodologik asoslari zamonaviy pedagogik paradigma doirasida kompetensiyaviy, tizimli va integrativ yondashuvlar hamda zamonaviy didaktika, raqamli pedagogika va ta‘limni individuallashtirish tamoyillari bilan asoslangan ilmiy-nazariy poydevor sifatida takomillashtirilgan;

“Bolalar adabiyoti” fani bo‘yicha o‘quv va mustaqil ta‘lim topshiriqlarining integrativ modeli adabiy ta‘lim tizimida pragmatik yo‘nalishga ega topshiriqlarning o‘rni va funksional ahamiyatini bosqichma-bosqich moslashtirish asosida talabalarda badiiy asar mazmunini anglash, uning g‘oyaviy mohiyatini ochib berish hamda ta‘limning ijodiy maqsadlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan metodika sifatida takomillashtirilgan;

o‘quv va mustaqil ta‘lim topshiriqlarini ishlab chiqish konsepsiyasi ilmiy jihatdan asoslanib, ularning didaktik-metodik funksiyalari aniqlashtirilgan holda mazmuni va tuzilishi jihatidan o‘ziga xos bo‘lgan “Bolalar adabiyoti” fani bo‘yicha yangi avlod darsligi ishlab chiqilgan hamda ushbu yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faolligini oshirishga yo‘naltirilgan o‘quv va mustaqil ta‘lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi takomillashtirilgan;

adabiy ta‘limni til o‘qitish jarayoni bilan uzviy integratsiyalash asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy, kommunikativ va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi badiiy matn bilan ishlashning bosqichma-bosqich tashkil etilishi, interfaol va dialogik metodlardan foydalanish, nutq faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik texnologiyalar hamda mustaqil ta‘lim faoliyatini loyihalash vositalarining o‘zaro uyg‘unligi asosida ilmiy jihatdan aniqlashtirilgan;

bolalar adabiyoti fanini o‘qitishda ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi ko‘p bosqichli pedagogik tajriba-sinovlar, ta‘lim monitoringi va diagnostik baholash natijalari asosida empirik jihatdan asoslanib, statistik va sifat tahlili orqali aniqlangan ko‘rsatkichlarga tayangan holda kompetensiyaviy, integrativ va individuallashtirilgan ta‘lim yondashuvlarini ta‘minlashga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Bolalar adabiyoti” fani ta‘lim mazmuni asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlarining didaktik-metodik ta‘minoti ishlab chiqilgan hamda oliy pedagogik ta‘lim amaliyotiga joriy etilgan;

ushbu topshiriqlar badiiy asar mazmunini chuqur anglash, muallif g‘oyasini ochib berish va talabalar adabiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida asoslangan “Boshlang‘ich ta‘limda didaktik asarlar orqali kitobxonlikni rivojlantirish” nomli o‘quv qo‘llanmani yaratishda foydalanilib, u

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining № UP-6084-son Farmonini amalga oshirish dasturining 2-bo‘limi 7-9-bandlarini ta‘minlash maqsadida yaratilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 1-avgustdagi № 277-sonli ruxsati bilan nashrga tavsiya etilgan);

bolalar adabiyoti fanida mustaqil ta‘lim va adabiy o‘qishga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlarning metodik tizimi ishlab chiqilib, u spiralsimon tamoyil asosida tajriba-sinovdan o‘tkazilgan hamda badiiy matnlarni tahlil qilish, janriy xususiyatlarni aniqlash va badiiy ifoda vositalarini o‘rganishga xizmat qiluvchi interfaol topshiriqlar amaliyotga tatbiq etilgan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘qib tushunish, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan va ta‘lim jarayoniga joriy etilgan;

tadqiqot natijalari asosida “Bolalar adabiyoti” nomli darslik, “Bolalar adabiyoti ta‘limida mustaqil va o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirish” nomli monografiya tayyorlanib, oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida uchun tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining “Bolalar adabiyoti” fani ta‘lim mazmuniga zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yondashilganligi, tadqiqot jarayonida yangi ilmiy paradigmalari va kompetensiyaviy tamoyillardan foydalanilganligi bilan ta‘minlangan. Olingan natijalar yurtimiz va xorijiy davlatlar olimlarining fundamental va amaliy tadqiqotlariga tayangan holda tahlil qilingan, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari matematik-statistik metodlar yordamida asoslangan. Shuningdek, chiqarilgan xulosa va ishlab chiqilgan tavsiyalarning ta‘lim amaliyotiga joriy etilganligi hamda tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi mazkur ilmiy natijalarning ishonchliligini kafolatlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bolalar adabiyoti fanini o‘qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari muayyan ilmiy qarashlar va empirik dalillar bilan boyitilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida “savol”, “o‘quv topshiriqlari” va “mustaqil ta‘lim” tushunchalarining mazmuniy va funksional farqlari tizimli tahlil qilinib, ularning didaktik mohiyati aniqlashtirildi hamda takomillashtirildi. Shuningdek, bolalar adabiyoti ta‘limida mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlarini tashkil etish jarayonining psixologik-pedagogik xususiyatlari, ushbu jarayon samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish hamda qo‘llash metodikasini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Olingan natijalardan mustaqil va o‘quv topshiriqlarini tashkil etishga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar hamda chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqishda, o‘quv jarayoni mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan davlat talablari va malaka talablarini takomillashtirishda foydalanish imkoniyati mavjud. Shuningdek, ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar asosida o‘quv reja va dasturlarni yangilash, o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratish hamda “Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi talabalarining oliy ta‘lim

muassasasini tamomlagandan keyingi innovatsion kasbiy faoliyatini rivojlantirishga erishish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga “Bolalar adabiyoti” fanidan mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bolalar adabiyoti ta‘limida mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasining konseptual, nazariy va metodologik asoslari zamonaviy pedagogik paradigma doirasida kompetensiyaviy, tizimli va integrativ yondashuvlar hamda zamonaviy didaktika, raqamli pedagogika va ta‘limni individuallashtirish tamoyillari bilan asoslangan ilmiy-nazariy poydevor sifatida takomillashtirilgan xulosalardan “Bolalar adabiyoti” fani darslik mazmuniga singdirilgan hamda o‘quv mashg‘ulotlarini tayyorlash va tashkil etishda amaliyotga joriy etilib, o‘quv jarayonida izchil qo‘llanilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi № 333-131-sonli ro‘yxatga olish haqidagi ma‘lumotnomasi). Natijada, “Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishining talabalari uchun mo‘ljallangan “Bolalar adabiyoti” fanidan ishlab chiqilgan darslik asosida unda mustaqil ta‘lim hamda o‘quv topshiriqlari tizimi pragmatik yondashuv asosida takomillashtirilib, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda metodik manba sifatida foydalanilgan;

“Bolalar adabiyoti” fani bo‘yicha o‘quv va mustaqil ta‘lim topshiriqlarining integrativ modeli adabiy ta‘lim tizimida pragmatik yo‘nalishga ega topshiriqlarning o‘rni va funksional ahamiyatini bosqichma-bosqich moslashtirish asosida talabalarda badiiy asar mazmunini anglash, uning g‘oyaviy mohiyatini ochib berish hamda ta‘limning ijodiy maqsadlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan metodika sifatida takomillashtirilgan ilmiy xulosalardan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialida amalga oshirilgan AI-XT-0-92997-raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2025-yil 6-avgustdagi 325-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, mazmuni va tuzilishi jihatidan yangilangan “Bolalar adabiyoti” fanini o‘qitishda o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasi yanada takomillashtirilgan;

o‘quv va mustaqil ta‘lim topshiriqlarini ishlab chiqish konsepsiyasi ilmiy jihatdan asoslanib, ularning didaktik-metodik funksiyalari aniqlashtirilgan holda mazmuni va tuzilishi jihatidan o‘ziga xos bo‘lgan “Bolalar adabiyoti” fani bo‘yicha yangi avlod darsligi ishlab chiqilgan hamda ushbu yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faolligini oshirishga yo‘naltirilgan o‘quv va mustaqil ta‘lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi takomillashtirilgan ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va dabiyyoti universiteti davlat ilmiy-texnik dasturlar doirasidagi 2020-2023 yillarda amalga oshirilgan AM-FZ-201908172- “O‘zbek tilining ta‘limiy korpusini yaratish” nomli loyihada foydalanilgan, bunda badiiy matn bilan ishlashning bosqichma-bosqich tashkil etilishi, interfaol va dialogik metodlardan foydalanish, nutq faoliyatini

rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik texnologiyalar hamda mustaqil ta'lim faoliyatini loyihalash vositalarining o'zaro uyg'unligi asosida ilmiy jihatdan aniqlashtirilgan va ta'lim amaliyotiga joriy etilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 22-fevraldagi № 04/1-655 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishining talabalari uchun mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari tizimi pragmatik yondashuv asosida takomillashtirilgan;

adabiy ta'limni til o'qitish jarayoni bilan uzviy integratsiyalash asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy, kommunikativ va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi badiiy matn bilan ishlashning bosqichma-bosqich tashkil etilishi, interfaol va dialogik metodlardan foydalanish, nutq faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik texnologiyalar hamda mustaqil ta'lim faoliyatini loyihalash vositalarining o'zaro uyg'unligi asosida ilmiy jihatdan aniqlashtirilganga xizmat qilgani haqidagi ilmiy xulosalardan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filiali tomonidan olib borilgan FZ-2016-0908165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfavit va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" (2018-2023) mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filialining 2025-yil 6-avgustdagi 326-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Bolalar adabiyoti" fanini o'qitish metodikasi takomillashtirilgan;

bolalar adabiyoti fanini o'qitishda ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi ko'p bosqichli pedagogik tajriba-sinovlar, ta'lim monitoringi va diagnostik baholash natijalari asosida empirik jihatdan asoslanib, statistik va sifat tahlili orqali aniqlangan ko'rsatkichlarga tayangan holda kompetensiyaviy, integrativ va individuallashtirilgan ta'lim yondashuvlarini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan xulosalar asosida boshlang'ich ta'limda "Bolalar adabiyoti" fani darsligi yaratilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi № 333-131-sonli ruxsati bilan nashrga tavsiya etilgan). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining adabiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik ta'minot oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 14 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 9 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 42 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, 1 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya nashrdan chiqarilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 25 ta maqola (20 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 241 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi asoslab berilgan, maqsadi, obyekti, predmeti va vazifalari belgilangan, tadqiqot ishini tashkil etishning nazariy va metodologik asoslari ta'riflangan, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bolalar adabiyoti fani asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat. Unda tadqiqot mavzusining ilmiy-nazariy negizlari, mazkur yo'nalishda olib borilgan xorijiy, MDH va mahalliy olimlar tadqiqotlarining o'rganilganlik darajasi hamda mavjud ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili bayon etilgan. Birinchi bobda bolalar adabiyoti fani doirasida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini takomillashtirish muammosi pedagogika va adabiyotshunoslik fanlari kesishmasida yoritilib, uning metodologik asoslari aniqlashtirilgan.

Mazkur bobning *“Bolalar adabiyoti ta'limi mazmunini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”* deb nomlangan birinchi faslida xorijiy, MDH va mahalliy ilmiy manbalarda bolalar adabiyotini o'qitish jarayonida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini tashkil etish masalasi turli nazariy va metodik yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Xususan, ingliz metodisti U.T.Litlvud ilmiy qarashlarida badiiy matn bilan ishlash jarayoni til va adabiy ta'limda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim vositasi sifatida talqin qilinadi. Olim bolalar adabiyotini o'qitishda matn asosida tuziladigan topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, mazmunni chuqur anglash va shaxsiy munosabat bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini asoslaydi. U.T.Litlvud yondashuvida o'quv topshiriqlari o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki badiiy matn mazmunini mustaqil talqin qiluvchi faol subyekt sifatida shakllantirishga yo'naltiriladi.

MDH olimlari orasida A.N.Leontev o'quv topshirig'ini shaxs faoliyatini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlash jarayonini boshqaruvchi muhim pedagogik omil sifatida izohlaydi. Uning faoliyat nazariyasiga ko'ra, topshiriq mazmuni o'quvchining ehtiyojlari va faoliyat motivlari bilan uyg'unlashgandagina ta'lim samaradorligi ta'minlanadi. Shu bilan birga, V.V.Davydov tomonidan ishlab chiqilgan rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasida o'quv topshiriqlari nazariy tafakkurni shakllantirishning yetakchi vositasi sifatida qaraladi. Olim o'quv topshiriqlarining muammoli va izlanishga yo'naltirilgan bo'lishi zarurligini asoslab, ularni o'quvchining mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantiruvchi muhim didaktik omil sifatida baholaydi.


Mahalliy olimlar tadqiqotlarida mazkur masala milliy ta'lim tizimi va pedagog kadrlar tayyorlash ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda yoritilgan. Jumladan, M.Jumaboyev bolalar adabiyotini o'qitish jarayonida badiiy tafakkur, obrazli fikrlash va estetik idrokni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. L.Xalilov badiiy matn tahlil qilish metodlari orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va tahliliy yondashuvini rivojlantirish mumkinligini ilmiy asoslaydi.

S.Matchonov esa badiiy matn asosida tuziladigan savol va topshiriqlar o'quvchini faqat mazmuni qayta bayon qiluvchi emas, balki mustaqil anglaydigan va baholaydigan faol subyekt sifatida shakllantirish vositasi ekanligini ta'kidlaydi. T.Adashboyev bolalar adabiyoti ta'limi mazmunini boyitishda ijodiy topshiriqlarning muhimligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, G.Raximova va Q.Yo'ldoshev tadqiqotlarida amaliyotda an'anaviy, asosan, reproduktiv yondashuvlarning ustunligi qayd etiladi.

Ushbu ilmiy qarashlar bolalar adabiyoti ta'limida savol va topshiriqlardan foydalanish masalasi yetarli darajada yoritilganini ko'rsatadi, lekin ularni tashkil etishda o'quvchilarning yosh, psixologik va bilish xususiyatlarini chuqur inobatga olish zaruratini ham dolzarb qiladi. Quyidagi jadvalda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv va mustaqil ta'lim topshiriqlarini takomillashtirishda uzluksizlikni ta'minlashning pragmatik-metodik tuzilmasi ko'rsatilgan:

1-jadval.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv va mustaqil ta'lim topshiriqlarini takomillashtirishda uzluksizlikni ta'minlashning pragmatik-metodik tuzilmasi



Shu jihatdan bolalar adabiyoti ta'limida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini takomillashtirish masalasi, avvalo, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos yondashuv asosida tashkil etilishini taqozo etadi. Bu jarayonda xalq og'zaki ijodi namunalari muhim pedagogik-psixologik tayanch sifatida namoyon bo'ladi, chunki folklor janrlari bolalarning obrazli tafakkuri, hissiy idroki, nutqiy faolligi va mustaqil fikrlash ehtiyojiga mos holda shakllangan. Ertak, topishmoq, maqol va tez aytishlar asosida ishlab chiqilgan mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari badiiy matnni ongli idrok etish, uning mazmunini tahlil qilish va ijodiy talqin etishga yo'naltirilgan faoliyatni faollashtiradi. Shu tariqa mustaqil ta'lim topshiriqlari reproduktiv mashqlar doirasidan chiqib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi didaktik vosita sifatida talqin etila boshlaydi. Bunday pedagogik-psixologik yondashuv bolalar adabiyoti ta'limi mazmunining shakllanish jarayonini yanada kengroq metodik nuqtayi nazardan ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shu jihatdan o'zbek bolalar adabiyoti ta'limining shakllanishi va mazmunan boyishi jahon bolalar adabiyoti ta'limida shakllangan metodik taraqqiyot bilan uzviy bog'liq holda kechgan.

Jahon tajribasida bolalar uchun mo'ljallangan badiiy asarlarni o'qitishda mustaqil fikrlash, hissiy munosabat va shaxsiy xulosaga tayangan yondashuvlarning ustuvorligi milliy bolalar adabiyoti ta'limi mazmuniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu jarayonda o'quv topshiriqlari faqat bilimni mustahkamlash vositasi sifatida emas, balki bolalarning badiiy tafakkuri va ma'naviy olamini rivojlantiruvchi metodik mexanizm sifatida talqin etila boshladi. Natijada mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarining mazmuni boyib, ularning funksional imkoniyatlari kengaydi hamda bolalar adabiyoti ta'limida ijodiy va reflektiv faoliyatga yo'naltirilgan yaxlit tizim shakllandi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli *“Bolalar adabiyoti fanida xalq og'zaki ijodi asosida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari”* deb nomlangan. Ushbu faslda xalq og'zaki ijodida mujassam bo'lgan axloqiy g'oyalar, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari va obrazli tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari bilan jahon bolalar adabiyoti ta'limida to'plangan metodik tajribaning uyg'unlashuvi bolalar adabiyoti ta'limida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini takomillashtirish uchun muhim nazariy-metodik asosni vujudga keltirganligi tahlilga tortilgan. Aynan shu uyg'unlik bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida badiiy matn bilan ishlashning mazmuniy va amaliy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi.

Bobning *“O'zbek bolalar adabiyoti ta'limining shakllanishida jahon bolalar adabiyoti ta'limi metodik taraqqiyotining o'rni”* deb nomlangan uchinchi faslida o'rganilgan ilmiy manbalar tahlil qilingan. Mavjud tadqiqotlarda bolalar adabiyotini o'qitish jarayonida savol va topshiriqlardan foydalanish masalasi yetarli darajada yoritilgan bo'lsa-da, bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarining mazmuni, turlari va funksiyalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bilan uzviy bog'langan holda tizimli ravishda ishlab chiqilmagan. Shuningdek, topshiriqlar ko'proq reproduktiv xarakterga ega bo'lib, talabalarning mustaqil

fikrlashi, ijodiy faolligi va badiiy matnni chuqur tahlil qilish ko'nikmalarini to'liq rivojlantirishga yetarli darajada xizmat qilmayapti.

Aynan shu holatlar bolalar adabiyoti ta'limida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlariga yangicha yondashuv zaruratini yuzaga keltirib, tadqiqotchining e'tiborini ilgari yetarlicha o'rganilmagan qirralarga qaratishga asos bo'ldi. Tadqiqotda avvalgi yondashuvlardan farqli ravishda mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari faqat badiiy matnni tushuntirish yoki mustahkamlash vositasi sifatida emas, balki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi yaxlit metodik tizim sifatida talqin qilindi.

Muallif ta'rifiga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini takomillashtirish bolalar adabiyoti fani mazmuni asosida badiiy matnni ongli idrok etish, mustaqil tahlil qilish va ijodiy talqin etishga yo'naltirilgan, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlovchi ilmiy nazariy va metodik jihatdan asoslangan o'quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish jarayoni sifatida izohlanadi. Ushbu mualliflik yondashuvi tadqiqotning keyingi bosqichlari uchun mantiqiy tayanch vazifasini bajarib, ikkinchi bobda bolalar adabiyoti ta'limi mazmunida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini tashkil etishning konseptual asoslarini ishlab chiqish, ularning tamoyillari, shakl va mexanizmlarini aniqlash uchun mustahkam nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi hamda tadqiqotning izchil davomini ta'minlaydi.


Mazkur bobda bayon etilgan nazariy xulosalar bolalar adabiyoti ta'limida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini takomillashtirish masalasini yanada chuqurroq, tizimli va amaliy yo'nalishda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois tadqiqotning keyingi bosqichida mazkur jarayonning konseptual asoslari, metodik mexanizmlari va ta'lim amaliyotidagi imkoniyatlari izchil yoritishga ehtiyoj tug'iladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Bolalar adabiyoti ta'limi mazmunida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini tashkil etishning konseptual asoslari**" deb nomlanib, to'rt fasldan iborat. Unda bolalar adabiyoti ta'limida mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini tashkil etishning nazariy-metodik yondashuvlari, tamoyillari hamda ularning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

